


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

Sohibova Z.N.	Usmon Azim she'riyatida tabiat tasvirining o'ziga xosligi	91
Uralova N.E.	Characteristics of O. Henry's use of metaphors in his short stories as an example of the story "The gift of the Magi"	96
Хакимова Д.М.	Анализ развития персонажа в повести Менглибоя Мурадова "Моя недетская душа"	100
Mirzayev X.T.	XVIII-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining ayrim masalalari tadqiqi	105
Ruziyeva N.H.	Abdurauf Fitratning "Oila" asari va uning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi	109
Олимов М.Х.	Алишер Навоий ва Бобур - бир асрнинг икки даҳоси	113
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., G'ulomova Sh.H.	"Farhod va Shirin" dostonida jurmi gunoh talqini	118
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A.	Ikkinchi jahon urushi-yillarida sovet-german frontida asirga olinganlar va ularning fojiali taqdirlari	121
Савриев Ж.Ф.	Зарафшон воҳаси архитектура ёдгорликларини таъмирлашда жамоатчиликнинг иштироки	125
Ризаев Б.Н.	Советча коллективлаштириш лойиҳаси	132
Йўлдашев А.А.	Туркистон ўлкаси хайрия ва маърифий жамиятлари молиявий таъминоти (XX аср бошлари)	140
Sodiqova N.N.	Ahmad Zaki Validiy va Buxorodagi sovet hokimiyatiga qarshi istiqloлчалик harakati	145
Qudratov Sh.Y., Sayfiddinov D.R.	Tarixchi olimа Dono Ziyayevaning O'zbekiston tarixi faniga qo'shgan hissasi	149
Salimov S.S.	2009-yil parlament saylovlarining o'ziga xos xususiyatlari	153
Nosirov Sh.O'.	Buxoro amirligidagi 1917-yil aprel voqealarining Turkiston matbuotida yoritilishi	158
Murodov H.S.	O'zbekistonda xalqaro turizmning yo'lga qo'yilishi (1993-1997-yillar misolida)	162

TARIXCHI OLIMA DONO ZIYAYEVANING O'ZBEKISTON TARIXI FANIGA QO'SHGAN HISSASI

Qudratov Shuxrat Yodgorovich,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Sayfiddinov Doston Rustam o'g'li,

Buxoro davlat universiteti arxeologiya va

Buxoro tarixi kafedrası magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli olim, tarix fanlari doktori, professor, Fanlar akademiyasi Tarix institutining bosh ilmiy xodimi Dono Ziyayevaning O'zbekiston tarixi faniga qo'shgan hissasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Dono Ziyayeva, olim, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston tarixi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, monografiya, o'quv qo'llanma, loyihalar, institut, tarixshunoslik, manbashunoslik.

ИСТОРИК-УЧЕНЫЙ ДОНО ЗИЯЕВА И ЕЕ ВКЛАД В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье представлена информация о вкладе Доно Зияева, известного ученого, доктора исторических наук, профессора, главного научного сотрудника Института истории Академии наук, в историю Узбекистана.

Ключевые слова: Доно Зияева, учёный, доктор исторических наук, профессор, история Узбекистана, Институт истории АН, монография, учебное пособие, проекты, институт, историография, источниковедение.

THE HISTORIAN-SCHOLAR DONO ZIYAYEVA AND HER CONTRIBUTION TO THE STUDY OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Abstract. This article provides information about the contribution of Dono Ziyayeva, a famous scientist, doctor of history, professor, chief researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences, to the history of Uzbekistan.

Keywords: Dono Ziyayeva, scientist, doctor of historical sciences, professor, history of Uzbekistan, Institute of History of the Academy of Sciences, monograph, study guide, projects, institute, historiography, source studies.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi, tarixshunos olim, professor Dono Hamidovna Ziyayeva (1961-2021) tarix fanining yirik darg'alaridan biri bo'lgan serqirra ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Dono Ziyayeva 1961-yilning 12-avgustida Toshkent shahrida yirik tarixchi olim Hamid Ziyoyev xonadonida dunyoga kelgan. U 1978-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ning Tarix fakultetiga o'qishga kirib, 1983-yili ushbu ta'lim dargohining tarix, jamiyatshunoslik va huquq asoslari yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

U mehnat faoliyatini 1983-yili Fanlar akademiyasi Tarix institutining Shaharlar tarixi bo'limida kichik ilmiy xodim sifatida boshlagan. Uning 1986 – 1991-yillar davomidagi faoliyati Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida kechdi. Jumladan, u dastlab institut aspiranturasiga o'qishga kirib, mazkur bosqichni muvaffaqiyatli tamomladi hamda 1990-yili yirik tarixshunos va manbashunos olim Boris Lunin ilmiy rahbarligi ostida "Turkistonda XIX – XX asr boshidagi milliy ozodlik harakatlari mustamlaka va sovet davri adabiyotlarida" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shuningdek, ushbu institutda o'qituvchi sifatida talabalarga bir muddat dars ham berdi. Dono Ziyayeva 1991 – 1994-yillarda Toshkent davlat agrar universitetida assistent lavozimida ishladi[1].

Olimaning 1994-yildan to umrining oxiriga qadar davom etgan mehnat faoliyati va ilmiy ijodi Fanlar akademiyasi Tarix institutida kechdi. Dono Ziyayeva dastlab mazkur institutning Tarixshunoslik, manbashunoslik va arxeografiya ilmiy-tadqiqot jamoasiga katta ilmiy xodim lavozimiga qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik, 1995 – 1998-yillarda doktoranturada ilmiy-tadqiqot ishini olib borib, 1999-yili taniqli olim,

professor Dilorom Alimova rahbarligi ostida “1916 – 1924-yillarda Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari XX asr tarixshunosligida” mavzusida doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli yoqladi[2].

1998-2020-yillarda Tarix instituti bo‘lim mudiri, 2000-2005-yillarda ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 2020-yil 1-iyuldan “O‘zbekistonning yangi davr tarixi” bo‘limida bosh ilmiy xodim sifatida ishlab kelgan[3]. Keyingi yillar davomida uzoq vaqt bo‘lim rahbari sifatida samarali mehnat qildi va 2012-yili professor ilmiy unvoniga ega bo‘ldi.

Muhokama va natijalar. Dono Ziyayevaning olima sifatidagi ilmiy izlanishlari O‘zbekistonning mustamlaka va sovet davri tarixi hamda tarixshunosligi masalalariga bag‘ishlangan. U so‘nggi yillarda amalga oshirgan ilmiy izlanishlari jarayonida asosan mustamlaka davri tarixining manbaviy, nazariy va uslubiy asoslari, diniy siyosat va munosabatlar, shaharlar tarixi, Markaziy Osiyo intellektual merosi, an‘anaviy madaniy hayot masalalari, Turkiston va xonliklar davri tarixi, shuningdek, sovet davridagi qatag‘on siyosati tarixshunosligi, sovet hokimiyatining xususiy mulkka qarshi kurash siyosati va uning oqibatlari kabi dolzarb muammolar tahliliga e‘tibor qaratgan edi. Dono Ziyayevaning tadqiqot faoliyati natijasi sifatida jami 200 ga yaqin ilmiy ishlari e‘lon qilingan. Xususan, uning 25 ta monografik tadqiqoti, xorijiy jurnallarda 30 dan ortiq va respublika hamda mahalliy nashrlarda 140 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan[1].

Dono Ziyayeva O‘zbekistonning XIX – XX asrlar tarixi, tarix-shunosligi va manbashunosligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, ko‘plab fundamental, amaliy va innovasiya loyihalar doirasida ish olib borgan. Loyihalar natijasida uning ma‘sul muharrirligi va ishtirokida o‘nlab monografiyalar chop etilgan, o‘quv qo‘llanmalari va muzey ekspozitsiyalari tayyorlanib, amaliyotga tatbiq etilgan[3].

So‘nggi 20 yil davomida uning bevosita ishtirokida 10 ta loyiha amalga oshirildi. Jumladan, Dono Ziyayeva “Turkiston o‘lkasida ma‘muriy boshqaruv tizimi (1865 – 1924)” (2000 – 2002 yillar), “O‘zbekiston tarixi. 1865 – 1917 yillar” (2003 – 2006-yillar)[4], “XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshlarida Buxoro va Xiva xonliklari tarixi” (2008 – 2011-yillar), “XIX asrning oxiri – XX asrda O‘zbekistonda diniy siyosat va diniy konfessiyalar” (2009 – 2011-yillar), “O‘zbekiston Rossiya mustamlakachiligi davrida (1860 – 1917 yillar) 1-jild” (2012-2013-yillar), “O‘zbekiston tarixi xrestomatiyasi. 1865 – 1917-yillar” (2012-2013 yillar)[5], “O‘zbekiston shaharlari tarixi: an‘analar, urbanizatsiya va transformatsiya jarayonlari (eng qadimdan hozirgacha)” (2012 – 2016 yillar), “XIX – XX asr bo‘shlarida o‘zbek xalqining intellektual-madaniy merosi: an‘analar va transformatsiya jarayonlari” (2017 – 2020-yillar) mavzusidagi fundamental va innovatsion tadqiqotlarga rahbarlik qildi. Masalan, amaliy tadqiqotlar loyihalari doirasida O‘zbekistonda eng qadimdan to hozirga qadar bo‘lgan tarixiy chegarada harbiy ish tarixi hamda tadbirkorlikning shakllanish va rivojlanish tarixi kabi mintaqa tarixining muhim masalalari ham tadqiq etilgan. Bu izlanishlar samarasi sifatida “O‘zbekistonda harbiy ish tarixi (eng qadimdan hozirgacha)” hamda “O‘zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish va rivojlanish tarixi (eng qadimdan hozirgacha)” kabi monografiyalar chop etilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqotlar natijalaridan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarixi muzeyi va Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi uchun ekspozitsiya, videorolik va multimediyalar yaratishda ham foydalanilgan.

Dono Ziyayeva ilmiy-tadqiqotlar natijalarini ta‘lim tizimiga tatbiq etishga ham alohida e‘tibor qaratgan olima edi. Jumladan, oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlarining magistratura bosqichi uchun O‘zbekiston tarixi va tarixshunosligi, xorijiy tarixshunoslik yo‘nalishlarining dolzarb muammolari bo‘yicha maxsus kurslar ishlab chiqqan bo‘lib, ulardan respublikadagi yetakchi oliy o‘quv yurtlari, xususan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Toshkent shahridagi Inxat universitetida hamon foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, o‘z ilmiy faoliyatini pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda olib borgan olima tarix fani bo‘yicha darsliklar va adabiyotlarni tayyorlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ekspert kengashining a‘zosi sifatida darsliklarni davr talablari va zamonaviy asosda yangilab borishda ham faol ishtirok etgan edi. Shuningdek, u 2004-yildan O‘zbekiston Respublikasi arxivlarining jamoatchilik kengashi raisi sifatida ish olib borib, arxiv manbashunosligi yo‘nalishini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shib keldi[1].

Tarix fanlari doktori, professor Dono Ziyoyeva tomonidan O‘zbekiston tarixiga doir to‘rtta monografiya nashr etilgan[6].

Dono Ziyayeva asosan XIX – XXI asr boshlarida “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbekiston tarixiga oid xorijiy tarixshunoslik” hamda “Arxiv manbashunosligi” yo‘nalishlarida o‘z ilmiy maktabini shakllantira olgan murabbiylardandir[7]. Bugunga qadar shu yo‘nalishlarda uning ilmiy rahbarligida jami 29 ta dissertatsiya himoya qilindi. Shulardan 25 ta fan nomzodi (shu jumladan, 7 ta PhD) va 4 ta fan doktori bo‘lib, hozirda mazkur ilmiy maktab vakillari respublikaning deyarli barcha hududlarida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan mashg‘uldirlar. Shuningdek, olimaning shogirdlari orasida xorijiy, jumladan, Janubiy koreyalik va qozog‘istonlik tadqiqotchilar ham bor. Bundan tashqari, yana 6 nafar tadqiqotchi (4 ta PhD va 2 ta fan doktori ilmiy darajasi uchun) o‘z ishini yakunlab, yoqlash arafasida edi.

Shu bilan birga, Dono Ziyayeva tarix fani bo'yicha nomzodlik (O'zbekiston Milliy universiteti) va doktorlik (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti) dissertasiyalari himoyasi bo'yicha ixtisoslashgan kengashlar a'zosi (2000 – 2009-yillar), Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining ijtimoiy fanlar bo'yicha ekspert guruhi a'zosi (2009 – 2012-yillar), ma'lum bir muddat Tarix instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashning raisi sifatida ilmiy darajali kadrlar tayyorlash ishiga o'z hissasini qo'shib keldi[1].

Olimaning hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, uning ilmiy qiziqishlari asosan O'zbekistonning Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davri tarixi bilan bog'langanligining guvohi bo'lamiz. U mazkur davrlarning peshqadam tarixchi mutaxassisi bo'lish bilan birga, mintaqa o'tmishining turli masalalariga bag'ishlangan ko'plab dissertatsiya mavzulariga rahbarlik qildi hamda bu bilan tarixchilar silsilasining yuzaga kelishi, yirik va ko'p tarmoqli ilmiy shajaraning shakllanishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Dono Ziyayevaning tashabbusi va bevosita rahnamoligida ko'plab ilmiy loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shu jihatdan, olim tarix fanining chuqur o'rganilmagan, yangi yo'nalishlarini tadqiq etishga ulkan hissa qo'shish bilan bir qatorda, uning istiqbolini so'nggi o'n yilliklar davomida belgilab berishda katta xizmat qildi[8].

Dono Ziyayeva o'z ilmiy maktabi doirasida O'zbekistonning XIX – XX asrlar tarixi va tarixshunosligi, xususan, Vatanimiz tarixiga oid xorijiy tarixshunoslik (ingliz, nemis, fransuz, turk, koreys tillaridagi tadqiqotlar) tahlili, tarixiy manbashunoslik (arxiv manbashunosligi va davriy matbuot), tarixiy va zamonaviy shahar madaniyati, ilm-fan tarixi, qatag'on siyosati, tashqi aloqalar, vaqf mulkchiligi, savdo yo'llari va munosabatlari, sud tarixikabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorladi[3].

Dono Ziyayeva nafaqat O'zbekiston va MDH mamlakatlari, balki uzoq xorijda ham tanilgan mashhur olimlardan edi. U 2006-yilning yanvar-aprel oylari davomida AQSh davlat departamenti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamkorligida amalga oshirilgan loyiha doirasida AQShning Sietl shahrida joylashgan Vashington universitetining Yaqin Sharq tillari va madaniyati fakultetida O'zbekiston tarixidan ma'ruzalar o'qigan. Uning mazkur ilmiy ma'ruzalari tinglovchilarda katta taassurot qoldirib, yuqori baholangan va safar yakunida olimaga AQShning ushbu universitetida faoliyatini davom ettirish taklifi ham bildirilgan. Dono Ziyayeva 2006-yilning noyabr oyida Janubiy Koreyaning Koreysshunoslik akademiyasida, 2018-yilning iyunida Xitoy Xalq Respublikasining Sian shahridagi Shanxay pedagogika universiteti (Shanghai Normal University)da ma'ruzalar o'qib, shu universitetning faxriy professori unvoniga sazovor bo'lgan. Shuningdek, u UNESO, SEFIS, Konrad Adenauer, IACD, ESCAS, CESS, International Turkic Academy kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tashabbusi va homiyligi ostida o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etgan.

Olima rahbarligida "O'zbekiston tarixi" ning V jildi, "O'zbekiston tarixi xrestomatiyasi"ning IV jildi va boshqa qator to'plamlar nashr etilgan[9].

Taniqli olim, tarix va tarixshunoslik sohasining etuk vakili, ko'plab shogirdlarlarga ustozlik qilib, o'zining ilmiy maktabini yarata olgan serqirra ijodkor, tarix fanlari doktori, professor Dono Hamidovna Ziyayeva 2021-yilda vafot etdi.

2022-yildan boshlab Dono Ziyayeva nomidagi "O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri)". 1-umummilliy ilmiy yig'ini to'plami chiqadigan bo'ldi[8]. Mazkur to'plamda atoqli olim, tarix fanlari doktori, professor Dono Hamidovna Ziyayeva nomidagi "O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri)" 1-umummilliy ilmiy yig'ini doirasida qabul qilinib, nashrga tavsiya etilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plam tarkibidan o'rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Dono Hamidovnaning ilmiy merosini davom ettirish maqsadida an'anaviy ilmiy yig'in tashkil etish haqidagi yaqin hamkasblari va shogirdlari taklifi hamda tashabbuslarining ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinishi va hatto qo'llab-quvvatlanishi uning sharafiga tashkil etilgan ilk anjumanning o'tkazilishi hamda uning samarasi bo'lmish mazkur to'plamning nashr etilishiga turtki bo'ldi. Ushbu maqolalar to'plami 2022 yilning 10 avgust kuni Dono Hamidovnaga bag'ishlab o'tkazilgan "O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr oxiri)" nomli 1-umummilliy ilmiy yig'iniga taqdim etilgan, maxsus ishchi guruh tomonidan nashrga tayyorlangan ilmiy materiallarni o'z ichiga olgan.

Bugunga qadar uning ilmiy rahbarligida jami 30 ta nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari (4 tasi fan doktorlari) muvaffaqiyatli himoya qilingan. Olimaning shogirdlari nafaqat respublikada, shuningdek Janubiy Koreya, Qozog'iston, Turkiya Oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalarida faoliyat yuritadilar[3].

Xulosa. Dono Ziyayeva ilmiy jamoatchilik orasida tarixchilar sulolasining munosib vakili va davomchisi edi. Tarix fanining yirik darg'alaridan biri bo'lgan serqirra ijodkor Dono Ziyayeva O'zbekiston tarix fani uchun juda ko'p sermahsul ijod qilgan olimalar sirasiga kiradi. Dono Ziyayeva O'zbekistonning XIX – XX asrlar tarixi, tarixshunosligi va manbashunosligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, ko'plab fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalar doirasida ish olib borgan. Loyihalar natijasida uning ma'sul

HISTORY

muharrirligi va ishtirokida o'nlab monografiyalar chop etilgan, o'quv qo'llanmalari va muzey ekspozitsiyalari tayyorlanib, amaliyotga tatbiq etilgan. Dono Ziyayeva o'zidan ulkan ilmiy maktab qoldirgan, tarix fanini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'sha olgan fidoyi olim va yoshlarning jonkuyar ustoz edi.

ADABIYOTLAR:

1. Ziyonurin taratib. *Fan*. Toshkent – 2021. 224-b.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dono_Ziyoyeva
3. O'zbekistonning ma'rifatparvar ayollari. I jild. *Fan*. Toshkent. 2021. 131-b.
4. O'zbekiston tarixi (1865 – 1917 yillar). Toshkent. 2014. 750 b.
5. O'zbekiston tarixi. *Xrestomatiya (1860 – 1917 yillar)*. (mas'ul muharrir: t.f.d., prof. Dono Ziyoyeva) 4 jild. 1-qism. Toshkent: Navro'z. 2014. 501 b.
6. O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida. Toshkent. 2017. 350 b. / XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida O'zbekiston shaharlari. Toshkent, 2014. 318 b. / Bosmachilik: haqiqat va uydurma. Toshkent. 2000. 32 b. / Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent: G'afur G'ulom. 2000. 174 b.
7. <https://www.academia.edu>
8. Dono Ziyayeva nomidagi “O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri)”. I-umummilliy ilmiy yig'ini to'plami. *Fan*. Toshkent – 2022. 416-b.
9. <https://.uz/news/tarikhchi-olim-dono-ziyeyeva-vafot-etdi-43644>